

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV Hujjatlari saqlash va tadqiq qilishdagi xizmatlari	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIIY, IQTISODIIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Hakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhreizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Саидбек Махмудович</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNINI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOYIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

LEGAL CONSEQUENCES OF SUSPENDING CRIMINAL PROCEEDINGS FOR THE VICTIM AND THE ACCUSED

Tuxtashev Sherzod Azimovich

Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,
Deputy Chairman of the Committee on Combating Corruption and Judicial-Legal Issues,
Master's student in the Prosecutorial Activities program at the Academy of Law Enforcement
of the Republic of Uzbekistan

E-mail: Sherzod062@mail.ru

Abstract. This article analyzes the legal consequences of the suspension of criminal proceedings for both the victim and the accused. Within the framework of criminal procedural legislation, the suspension of proceedings significantly affects the rights and obligations of the parties involved. The article explores the victim's right to a fair trial, their access to protection and compensation, as well as the accused's right to defense, the expiration of procedural time limits, and potential rehabilitation issues. Additionally, the article examines the legal reasons for suspending criminal proceedings, the potential risks of its misuse, and the available legal safeguards. It highlights the role of prosecutorial and judicial oversight, along with the procedural mechanisms that ensure the legality of suspensions. The study provides practical recommendations for the fair and appropriate application of this legal institution, aiming to balance the rights and interests of all participants in criminal proceedings.

Keywords: suspension of criminal proceedings, criminal procedural law, victims' rights, defendants' rights, fair trial, procedural safeguards, investigative authorities, prosecutorial oversight, judicial control, procedural time limits, rehabilitation, legal consequences, criminal case management, legality, right to defense.

JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI

Tuxtashev Sherzod Azimovich,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Prokurorlik faoliyati yo'nalishi magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat ishini to'xtatib turish institutining jabrlanuvchi va ayblanuvchi uchun huquqiy oqibatlari tahlil qilinadi. Jinoyat-protsessual qonunchilik doirasida ishni to'xtatib turish jarayon ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Maqolada jabrlanuvchining adolatli sudlovga bo'lgan huquqi, himoya va kompensatsiya olish imkoniyatlari, ayblanuvchining esa himoya huquqi, protsessual muddatlarning o'tishi hamda ehtimoliy reabilitatsiya masalalari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada jinoyat ishini to'xtatib turish sabablarining huquqiy tahlili, ushbu institutning suiste'mol qilinishi ehtimoli va huquqiy kafolatlar muhokama qilinadi. Prokurorlik nazorati, sud nazorati va jarayon ishtirokchilari uchun mavjud protsessual mexanizmlar orqali ishni to'xtatib turish qonuniyligini ta'minlash choralari yoritiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat ishini to'xtatib turish, jinoyat-protsessual huquq, jabrlanuvchi huquqlari, ayblanuvchi huquqlari, adolatli sudlov, protsessual kafolatlar, tergov organlari, prokurorlik nazorati, sud nazorati, protsessual muddatlar, reabilitatsiya, huquqiy oqibatlar, jinoyat ishi yuritish, qonuniylik, himoya huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N68>

Kirish. Jinoyat-protsessual tizim murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, o'zaro bog'liq elementlar majmuasidan iborat. Bu elementlar qatoriga alohida bosqichlar, protsessual harakatlar, qarorlar va boshqalar kiradi. Har bir element o'ziga xos tartibga ega bo'lib, batafsil normativ tartibga solish bilan ajralib turadi. Shunday elementlardan biri jinoyat ishini to'xtatib turish hisoblanadi.

Jinoyat ishini to'xtatib turishning jabrlanuvchi va ayblanuvchi uchun huquqiy oqibatlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, jinoyat ishlarini to'xtatib turish institutining taraflar huquqlariga ta'sirini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

G'.A.Abdumajidov ta'kidlashicha, "jinoyat ishini to'xtatib turish — bu jinoyat protsessual faoliyatning vaqtinchalik to'xtatilishi bo'lib, unda tergov harakatlari va protsessual harakatlar o'tkazilmaydi. Bu holat jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilgunga qadar davom etadi." [1]

B.X. Pulatov jinoyat ishini to'xtatib turishning quyidagi huquqiy oqibatlarini ajratib ko'rsatadi:

- Jabrlanuvchi uchun: adolat qaror topishining kechikishi, moddiy va ma'naviy zararining qoplanishi muddatining cho'zilishi;
- Ayblanuvchi uchun: aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili asosida huquqlarining cheklanishi, ish yakunlanmasligi tufayli ruhiy zo'riqish [2].

Rossiyalik olim V.M. Bykov jinoyat ishini to'xtatib turishni protsessual majburlov chorasi sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, "bu institut jinoyat protsessida zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi, ammo u insonlarning konstitutsiyaviy huquqlariga putur yetkazmasligi kerak." [3]

Dastlabki tergov bosqichida qonuniylikni ta'minlash vositalari (kafolatlari) majmuasiga nisbatan turli xil nuqtai nazarlar mavjud. Bunday kafolatlar qatoriga *jinoiat-protsessual tamoyillar, mansabdor shaxslarning vakolatlari, manfaatdor shaxslarning huquq va majburiyatlari*, shu jumladan, dastlabki tergov organlarining protsessual qarorlaridan shikoyat qilish huquqi, protsessual shakllar va boshqa jihatlar kiradi.

Masalan, **G. V. Tarasova** jinoyat-protsessual kafolatlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: "jinoyat-protsessual tamoyillar, jinoyat-protsessual shakl, jarayon ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularning amaliy faoliyati, bu faoliyat ustidan nazorat va prokurorlik nazorati." [4]

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) 364-moddasida jinoyat ishini to'xtatib turishning asosiy holatlari belgilangan. Ushbu normalar jinoyat protsessining muhim qismi bo'lib, tergov va sud jarayonining samarali kechishini ta'minlash, taraflarning huquqlarini himoya qilish va adolatli sudlovni amalga oshirishga xizmat qiladi. Biroq, amaliyotda ushbu institutning qo'llanilishi bo'yicha bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Jinoyat ishini to'xtatib turishning mavjud asoslari va ularga oid muammolar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasiga muvofiq, quyidagi holatlarda jinoyat ishi to'xtatib turilishi mumkin:

- Ayblanuvchining shaxsini aniqlash imkoni bo'lmaganda;
- Ayblanuvchi qochib ketganda va uning joylashuvi noma'lum bo'lsa;

- *Ayblanuvchi og'ir kasallikka chalingan bo'lsa;*
- *Tergov yoki sud uchun muhim bo'lgan ekspertiza xulosasi olinmagan bo'lsa*[5].

Ushbu asoslar, nazariy jihatdan, tergov va sud jarayonini obyektivlik bilan yuritishga xizmat qilishi lozim. Biroq, amaliyotda bu asoslarning ba'zilar noto'g'ri talqin qilinishi yoki protsessual jihatdan samarali qo'llanilmasligi holatlari kuzatilmoqda. Masalan: Ayrim hollarda, ayblanuvchining qochib ketishi asosida ish to'xtatiladi, biroq uni topish va javobgarlikka tortish bo'yicha zarur chora-tadbirlar yetarlicha samarali amalga oshirilmaydi. Bu esa aybdor shaxslarning javobgarlikdan qochishiga olib kelishi mumkin. Yoki, jinoyat ishining to'xtatilishiga sabab bo'lgan ekspertiza natijalarining kechikishi sud jarayonining haddan tashqari cho'zilishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda, sud-tergov organlari ekspertizani o'z vaqtida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, texnik yoki tashkiliy sabablar tufayli jarayon cho'zilib ketadi. Shuningdek, amaliyotda ba'zi hollarda ayblanuvchining kasalligi sababli ishni to'xtatib turish, aslida, jarayonni sun'iy ravishda cho'zish yoki tergov va sud organlari tomonidan protsessual majburiyatlarni bajarmaslik uchun ishlatilishi mumkin.[6]

Tergovchi, surishtiruvchi va dastlabki tergov organlarining boshqa mansabdor shaxslari faoliyatida ishni noqonuniy to'xtatib turish qarorlari tez-tez uchrab turadi. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida prokurorlar tomonidan 390 mingdan ortiq shunday qarorlar bekor qilingan. 2020-yilning xuddi shu davri bilan solishtirganda, bu ko'rsatkich 3,6% ga oshgan.[7] 2023-yilning yanvar-may oylarida prokurorlar tomonidan 185 586 ta to'xtatib turish qarorlari bekor qilingan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan biroz pastroq (2,9% ga kamaygan). Absolyut raqamlarda bu ma'lumotlar o'n minglab jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish qarorlari bilan bog'liq bo'lgan jinoiy-protsessual qonun buzilishlarining keng ko'lamda ekanligini ko'rsatadi.

Jinoyat ishini to'xtatib turishning amaliy oqibatlari va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar taklif etilishi mumkin:

Birinchidan, agar jinoyat ishi ayblanuvchining qochib ketishi sababli to'xtatilsa, uni qidirish bo'yicha aniq protsessual talablar joriy etilishi lozim. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, davlatlararo qidiruv mexanizmlarini kuchaytirish, Interpol orqali qidiruv e'lon qilish jarayonini soddalashtirish zarur. Ikkinchidan, ekspertiza natijalarini olish muddati qonunchilikda aniq belgilanishi va bu muddatlarning buzilishi jarayonga noxolis ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Ekspertiza kechiktirilgan holatlarda tergov organlarining bunday kechikish sabablarini asoslash majburiyati joriy etilishi kerak. Uchinchidan, ayblanuvchining kasalligi sababli ishni to'xtatish faqat mustaqil tibbiy ekspertiza xulosasiga asoslanishi va unga doimiy monitoring o'rnatilishi lozim. Agar ayblanuvchi uzoq vaqt davomida sud jarayonida ishtirok eta olmasa, muqobil protsessual mexanizmlar (masalan, videokonferensiya orqali sud ishtiroki) qo'llanilishi mumkin. Va nihoyat, to'rtinchidan, sud yoki tergov organlari tomonidan qabul qilingan to'xtatish qarorlarini prokuratura tomonidan tekshirish va ularga nisbatan apellyatsiya berish imkoniyatini kengaytirish lozim. Jabrlanuvchilar yoki ularning vakillari ishning to'xtatilishi ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'lishlari kerak.

Jinoyat ishini to'xtatib turish bo'yicha amaldagi qonunchilik, umuman olganda, protsessual jarayonning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Biroq, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar ushbu institutning noto'g'ri qo'llanilishiga yoki suiiste'mol

qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, qonunchilikni yanada takomillashtirish, jinoyat ishlarini to'xtatib turish bilan bog'liq asoslarni aniq belgilash va ushbu qarorlarning nazoratini kuchaytirish orqali sud-huquq tizimi yanada samarali bo'lishi va taraflarning huquqlari himoya qilinishi ta'minlanadi.

Jabrlanuvchi uchun huquqiy oqibatlar. Ishning to'xtatib turilishi jabrlanuvchi uchun adolat qaror topishining kechikishiga sabab bo'ladi, bu esa uning huquq va manfaatlarini himoya qilishda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zararining qoplanishi ham ish to'xtatib turilgan davrda kechikishi mumkin, bu esa uning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, ishning to'xtatib turilishi jabrlanuvchida ishonchsizlik va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa uning hayotiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[8]

Ayblanuvchi uchun huquqiy oqibatlar. Ishning to'xtatib turilishi ayblanuvchining huquqiy holati uzoq muddat noma'lum bo'lib qolishiga olib keladi, bu esa uning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ishning to'xtatib turilishi davomida jamoatchilik fikrida ayblanuvchiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin, bu esa aybsizlik prezumpsiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Jinoyat-protsessual fanida dastlabki tergovni to'xtatib turish tushunchasi allaqachon vaqtinchalik tanaffus sifatida qaralib kelinmoqda: ***“Dastlabki tergovni to'xtatib turish instituti*** – bu jinoyat-protsessual faoliyatning muayyan subyektlari tomonidan tergov jarayonini vaqtincha davom ettirishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganda shakllanadigan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi jinoyat-protsessual normalar yig'indisidir. Ushbu institutning maqsadi to'xtatib turish va tergovni qayta tiklash asoslari hamda shartlarini aniqlash, ishni to'xtatishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rish, shuningdek, jarayonning boshqa ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.”[9]

Prokurorning dastlabki tergovda ishni to'xtatib turish va qayta tiklash qonuniyligini ta'minlash bo'yicha protsessual faoliyati, unga bog'liq jinoyat-protsessual institutlar hamda dastlabki tergov organlarining amaliy faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Jinoyat ishini to'xtatib turish va qayta tiklash jarayonlarini yagona, tizimli va mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lgan jinoyat-protsessual huquq instituti sifatida ko'rib chiqish lozim.

Jinoyat-protsessual huquqda ishni ***to'xtatib turish va qayta tiklash instituti*** jinoyat ishlarini yuritish qonuniyligini ta'minlash va jinoyat-protsessual ishtirokchilarning, birinchi navbatda, gumonlanuvchi va ayblanuvchining huquqlarini kafolatlash bo'yicha samarali va majburiy protsessual vosita sifatida qaralishi lozim.

Mazkur institut faqat tergov harakatlarini vaqtincha to'xtatish emas, balki ularni qayta tiklash tartibini ham belgilovchi ***tizimli jinoyat-protsessual normalar majmuasi*** sifatida tushunilishi kerak. Shuningdek, ushbu institut jinoyat-protsessual huquq tizimida o'z funksiyasini to'laqonli bajarishi uchun unda ishni ***to'xtatib turish qarorini bekor qilish*** mexanizmi mavjud bo'lishi shart.

Agar ushbu jinoyat-protsessual harakatlar o'zaro bog'liqlikdan uzilgan holda ko'rib chiqilsa, ularning aloqasi yo'qoladi va bu jarayon qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin. *Ish yuritishni qayta tiklash* esa tergov harakatlaridagi tanaffusning *mantiqiy va qonuniy yakuni* bo'lib hisoblanadi.

Prokurorlik nazorati *universal xarakterga ega bo'lib*, u dastlabki tergovning *har ikkala shakliga* (dastlabki tergov va surishtiruv) taalluqli hisoblanadi. U *tashabbuskor va keng qamrovli* bo'lib, federal qonunchilik buzilishlarini aniqlashga qaratilgan protsessual ta'sir choralari o'z ichiga oladi.

Prokurorning qarorlari *keskin va yakuniy* bo'lib, ular majburiy ijroga ega. Shu sababli, *ishni to'xtatib turish qonuniyligini ta'minlashda eng samarali protsessual vosita* prokurorning jinoyat-protsessual faoliyatidir. Bu sohada mavjud muammolarga qaramay, *prokuror mustaqil ravishda* dastlabki tergov bosqichida ishni to'xtatib turish qonuniyligini ta'minlash vazifasini hal qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat ishini to'xtatib turish jabrlanuvchi va ayblanuvchi uchun bir qator huquqiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun, ishni to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilishda taraflarning huquq va manfaatlarini muvozanatlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ishni to'xtatib turish asoslari va tartibi aniq belgilangan bo'lib, ularga amal qilish orqali adolatli sudlovni ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdumajidov G'.A. "O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessi". Darslik. - Toshkent: TDYI, 2018. 32-35 bet.
2. Pulatov B.X. "Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash". O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019. 67-bet.
3. Быков В. М., Ломовский В. Д. Приостановление производства по уголовному делу. М.: Юрид. лит., 1978. С. 21. Аналогичное мнение высказывается Н.М. Самиевым: Самиев Н. М. Работа следователя по приостановленному уголовному делу о нераскрытом преступлении: планирование, особенности, эффективность // Юрид. наука и правоохранительная практика. 2015. № 3 (33). С. 187.
4. Гладышева О. В. Теоретическая модель механизмов обеспечения прав и законных интересов человека и гражданина в уголовном судопроизводстве: дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2013. 478 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasi. <https://lex.uz/acts/111460>
6. "Суд-тергов фаолиятида шахсининг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони <https://president.uz/uz/lists/view/3765>
7. Основные результаты прокурорской деятельности за январь – декабрь 2020 г. // Официальный сайт Генеральной прокуратуры РФ: <http://genproc.gov.ru/stat/data/1007532/>.
8. "Suspension of Criminal Proceedings for Perpetrators of Intimate Partner Violence Against Women: Impact on Re-Entries" <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8586086/?utm>
9. Закирова Э. Ф. Ведомственный контроль за законностью приостановления уголовных дел в случаях, когда подозреваемый или обвиняемый скрылся от следствия либо местонахождение его не установлено по иным причинам // Вестник Удмуртского университета. Сер.: Правоведение. 2005. № 6 (2). С. 148.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).